

KATARAKTA

Beshariq Abu Ali ibn Sino Nomidagi

Jamoat salomatligi Texnikumi o'qituvchisi

Turanova Moxigul Abduhamid qizi

Annotatsiya. Katarakta gavharining xiralanishi. Bunda ko'zga tushayotgan yorug'lik nurlarining yo'li qisman to'silib qolib, ko'z ba'zan ko'rmay qoladi. Ko'z gavharining qaysi qismi xiralashganiga qarab, Ko'zning quyidagi turlari farq qilinadi: old va orqa polyar katarakta, xaltali katarakta (gavharni o'rab turgan kapsulada bo'ladi), yadroli (gavharning markazida bo'ladi), urchuqsimon, qavatli yoki zonulyar, to'liq plyonkasimon, ko'p shaklli, po'stloq kataraktasi (gavharning periferik qavatiga tushadi). Ko'z gavharida xiralanishning boshlanishi birlamchi katarakta deyilsa, gavharning yadrosi yoki katarakta massalari olingandan so'ng paydo bo'lgan xiralanish ikkilamchi katarakta deyiladi.

Kalit so'zlar: Etiologiya, Epidemiologiya, Patogenez, Ko'z gavhari, Xiralashish.

Dolzarbligi: Katarakta butun yer kurrasida uchraydigan holat hisoblanadi. Bu kasallik yosh o'tishi natijasida ko'zda xiralashishi natijasida kelib chiqadi. Tug'ma turida esa homiladorlik vaqtidagi zararli omillar, qandli diabet bilan og'rishi ham sabab bo'lishi mumkin.

Turlari

Katarakta tug'ma va hayotda orttirilgan bo'ladi. Ona qornida rivojlanayotgan homilaga turli tashqi (zaharlanish, gipova avitaminoz, nurlanish) va ichki (ona va bolaning rezus kelishmovchiligi) muhitlarning salbiy ta'siri, homiladorlik vaqtida onaning turli kasalliklar, ayniqsa, yuqumli kasalliklar bilan og'rishi, shuningdek, nasldannaslgaga o'tuvchi irsiy kasalliklar tug'ma kataraktaga sabab bo'ladi. Bunda gavharning xiralashishi juda sekin rivojlanishi mumkin, ayrim bemorlarda umr bo'yi o'zgarmaydi. Organizmda moddalar almashinuvining buzilishi, qand kasalligi, shuningdek, umumiy kasalliklar, ko'z shikastlanishlari va kasalliklari, yaqindan ko'rishning og'ir shakli, yuqori temperaturada uzoq ishlash, turli zaharli moddalar va ionlashtiruvchi nurlar ta'sirida orttirilgan katarakta

yuzaga keladi. Orttilirilgan kataraktaning qarilik, travmatik va asoratli (glaukoma, iridotsiklit, qand kasalligi va b.ning asorati sifatida) turlari bor. Orttilirilgan kataraktada vaqt o'tishi bilan ko'z gavhari butunlay xiralashib qoladi. Qarilikdagi katarakta asta-sekin rivojlanadi, u ko'proq 55—60 yoshdan oshganlarda uchraydi. Qarilikdagi kataraktaning boshlanish, yetilmagan, yetilgan va yetilib o'tib ketgan bosqichlari farq qilinadi, uning yetilgan davri hammadada har xil, bu odatda, bemorning umumiy ahvoli va yoshiga bog'liq. Operatsiya muddatini belgilashda kasallikning yetilgan bosqichi muhim. Kataraktada dastlab bemorning kasal ko'zi oldi jimirlab, nuqta, chiziq va dog'lar paydo bo'ladi; yonib turgan lampa, shar yoki fonarga shu ko'z bilan Karaganda, u bir nechta bo'lib ko'rinadi. Bu — notekis xiralashgan ko'z gavharining nur sindirish xususiyati buzilishi oqibatida ro'y beradi. Ko'zning xira tortishi uning boshqa kasalliklarida ham kuzatiladi, shuning uchun, albatta, vrachga murojaat etish va kasallikni o'z vaqtida aniqlash lozim. Dorilar bilan davolanadi yoki mikroxirurgiya, ultratovush yoki lazer nurlari yordamida operatsiya qilib xiralashgan ko'z gavhari olib tashlanadi

Etiologiyasi

Katarakta ko'z gavhariga ta'sir qilib, uni xiralashtiradi va ko'rish o'tkirligini pasaytiradi. Kataraktaning asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

Irsiyat

Keksalik

Endokrin bezlardagi yallig'lanish jarayonlari

Ko'z jarohatlari yoki kasalliklari

Ultrabinafsha yoki nurli nurlanishning uzoq muddatli ta'siri

Zaharlanish

Antioksidantlar tanqisligi

Bolalarda katarakta odatda tug'ma bo'ladi va hayotining birinchi oylarida paydo bo'ladi.

Katarakta belgilari

Katarakta simptomlari quyidagilardan iborat:

Yaqindan ko‘rish

Ko'zlar oldidagi jismlar

Ko‘rish aniqligining pasayishi

Ko‘rishning yomonlashishi

Ko‘z shox pardasining xiralashishi

Narsalarni ikkiga ajralishi

Yuqori yorug‘lik sezgirligi

Ko‘z oldidagi yorug‘lik uchqunlari

Katarakta tashxisi uchun oftalmolog quyidagilarni buyuradi:

Oftalmologiyada diagnostika

Oftalmoskopiya

Ko'z tonometriyasi

Ko'zni biomikroskopiya

Kompyuter perimetriyasi

Kompyuter refraktometriyasi

Kataraktani davolash

Kataraktani davolash quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Ko‘z tomchilari (zarur moddalarni qo‘shgan holda)

Fizioterapiya (masalan, Sidorenko ko‘zoynagi)

Jarrohlik aralashuvi (ultratovush, lazer, ekstrakapsulyar)

Kataraktani jarrohlik yo‘li bilan olib tashlashga ko‘rsatmalar:

Shishib ketuvchi katarakta

Ko‘z gavharining chiqishi yoki chiqishi

To‘r pardaning ko‘chishi

Diabetik retinopatiya

Xavf

Kataraktani o‘z vaqtida davolamaslik jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin, masalan:

To‘r pardaning ko‘chishi

Ikkilamchi glaukoma

Butunlay ko‘rlik

Xavf guruhi

Katarakta xavfi guruhiga quyidagilar kiradi:

Irsiy moyilligi bo‘lgan odamlar

Keksa odamlar

Qandli diabet bilan og‘rigan odamlar

Glyukokortikosteroidlarni uzoq vaqt qabul qiladigan odamlar

Kasallik, jarohat yoki jarrohlik amaliyoti o‘tkazgan odamlar

Oldini olish

Katarakta profilaktikasi uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

Vitaminlarga boy mahsulotlarni iste‘mol qilish

Ko'zlarni ultrabinafsha nurlardan himoya qilish (quyosh ko'zoynagi taqish)

Kompyuterda ishlayotganda maxsus gardishli ko'zoynak taqing va har 45 daqiqada ko'zingizga dam bering

Ko'rishni yaxshilaydigan vitaminli dorilarni qabul qilish

Bolalarda katarakta odatda tug'ma bo'ladi va hayotining birinchi oylarida paydo bo'ladi.

Katarakta belgilari

Katarakta simptomlari quyidagilardan iborat:

Yaqindan ko'rish

Ko'zlar oldidagi jismlar

Ko'rish aniqligining pasayishi

Ko'rishning yomonlashishi

Ko'z shox pardasining xiralashishi

Narsalarni ikkiga ajralishi

Yuqori yorug'lik sezgirligi

Ko'z oldidagi yorug'lik uchqunlari

Diagnostika

Katarakta tashxisi uchun oftalmolog quyidagilarni buyuradi:

Oftalmologiyada diagnostika

Oftalmoskopiya

Ko'z tonometriyasi

Ko'zni biomikroskopiya

Kompyuter perimetriyasi

Kompyuter refraktometriyasi

Kataraktani davolash

Kataraktani davolash quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Ko'z tomchilari (zarur moddalarni qo'shgan holda)

Fizioterapiya (masalan, Sidorenko ko'zoynagi)

Jarrohlik aralashuvi (ultratovush, lazer, ekstrakapsulyar)

Kataraktani jarrohlik yo'li bilan olib tashlashga ko'rsatmalar:

Shishib ketuvchi katarakta

Ko'z gavharining chiqishi yoki chiqishi

To'r pardaning ko'chishi

Diabetik retinopatiya

Xavf

Kataraktani o'z vaqtida davolamaslik jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin, masalan:

To'r pardaning ko'chishi

Ikkilamchi glaukoma

Butunlay ko'rlik

Xavf guruhi

Katarakta xavfi guruhiga quyidagilar kiradi:

Irsiy moyilligi bo'lgan odamlar

Keksa odamlar

Qandli diabet bilan og‘rigan odamlar

Glyukokortikosteroidlarni uzoq vaqt qabul qiladigan odamlar

Kasallik, jarohat yoki jarrohlik amaliyoti o‘tkazgan odamlar

Oldini olish

Katarakta profilaktikasi uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

Vitaminlarga boy mahsulotlarni iste’mol qilish

Ko‘zlarni ultrabinafsha nurlardan himoya qilish (quyosh ko‘zoynagi taqish)

Kompyuterda ishlayotganda maxsus gardishli ko‘zoynak taqing va har 45 daqiqada ko‘zingizga dam bering

Ko‘rishni yaxshilaydigan vitaminli dorilarni qabul qilish

Foydalanilgan adabiyotlar:

F.S.Yuldasheva, M.S. Yusupova, S.M . Aripova. “Ko‘z kasalliklari”

N.R.Yangiyeva, S. S. Agzamova. “ Oftalmologiyada hamshiralik ishi “ o’quv qo’llanma